



OLIV TA'LIMDA IJTIMOIV TARMOQLAR ORQALI HAMKORLIK VA BILIM ALMASHINUVI

Pimkulova Stora Boltayevna,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

storapimkulova10@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1804>

MAQOLA HAQIDA/O' STAT'YE

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 40

KALIT SO'ZLAR/KLYUCHEBYE CJIOBA

oliy ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar, hamkorlikda o'qish, bilim almashinuvi, akademik muloqot, raqamli pedagogika, tengdoshlar bahosi, refleksiya

ANNOTATSIIYA/ ANNOTACIIYA

Maqolada oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlar orqali hamkorlik va bilim almashinuvi tashkil etishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarning hamkorlikda bilim yaratish imkoniyatlarini aniqlash, samaradorlikni belgilovchi pedagogik shartlarni tizimlashtirish va amaliy tashkil etish mexanizmini taklif qilishdan iborat. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo'lib, unda tizimli tahlil, qiyoslash, mazmuniy guruhlash va ilmiy manbalarni umumlashtirish usullari qo'llandi. Tahlil natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar aniq maqsad, ishtirokchi rollari, dalil talabi, moderatsiya, formativ qayta aloqa va shaffof baholash mezonlari asosida tashkil etilganda talabalar o'rtasidagi muloqot hamkorlikda bilim yaratish jarayoniga aylanadi. Biroq maqsadsiz axborot almashinuvi, individual hissaning noaniqligi, ishonchsiz manbalar, raqamli tengsizlik hamda maxfiylik xavflari pedagogik samarani pasaytiradi. Shu sababli ijtimoiy tarmoq LMS, raqamli portfolio va refleksiv baholash bilan integratsiyalashgan yordamchi ta'lim muhiti sifatida qo'llanishi lozim. Shuningdek, tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarning funksional imkoniyatlari qiyosiy ko'rib chiqilib, Telegram tezkor akademik muloqot, LinkedIn professional hamkorlik, YouTube video va multimedia asosidagi bilim almashinuvi, Instagram vizual kontent, Facebook esa guruhli muhokamalar uchun qo'llanishi mumkinligi asoslandi. Platformani tanlashda uning ommabopligidan ko'ra, o'quv maqsadi, topshiriq turi, ishtirokchilar ehtiyoji va baholash imkoniyatlariga mosligi ustuvor bo'lishi lozim.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 40

KEYWORDS

higher education, social networks, collaborative learning, knowledge exchange, academic dialogue, digital pedagogy, peer assessment, reflection

ANNOTATION

This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of organizing collaboration and knowledge sharing through social media in higher education. The aim of the study is to identify the potential of social media for co-creation of knowledge, systematize the pedagogical conditions that determine its effectiveness, and propose a mechanism for its practical organization. The study is theoretical and analytical in nature, using methods of systematic analysis, comparison, content grouping, and synthesis of scientific sources. According to the analysis, when social media are organized based on a clear goal, participant roles, evidence requirements, moderation, formative feedback, and transparent assessment criteria, communication between students turns into a process of co-creation of knowledge. However, aimless information sharing, uncertainty of individual contribution, unreliable sources, digital inequality, and privacy risks reduce pedagogical effectiveness. Therefore, social media should be used as a supporting learning environment integrated with learning management systems (LMS), digital portfolios, and reflective assessment. The study also compares the functional potential of different social media platforms. Telegram can support rapid academic communication, LinkedIn professional collaboration, YouTube video-based knowledge sharing, Instagram visual learning content, and Facebook group discussions. The findings suggest that platform selection should be based not on popularity, but on learning objectives, task type, students' needs, and assessment requirements.

Kirish

Oliy ta'limning raqamli transformatsiyasi bilimni faqat o'qituvchidan talabaga uzatishga asoslangan modeldan hamkorlikda yaratish, muhokama qilish va qayta ishlashga yo'naltirilgan modelga o'tishni tezlashtirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar talabalar va pedagoglarga auditoriya bilan cheklanmagan holda material ulashish, savol berish, guruhli loyiha yuritish, mutaxassislar bilan aloqa o'rnatish va ilmiy g'oyalarni jamoaviy muhokama qilish imkonini beradi. Ularning ommabopligi, mobil qurilmalarda qulay ishlashi va tezkor qayta aloqa xususiyati ta'limdagi hamkorlik uchun muhim sharoit yaratadi.

Biroq ijtimoiy tarmoqda xabarlar sonining ko'pligi yoki fayllarning tez tarqalishi o'z-o'zidan bilim almashinuvi yuz berganini anglatmaydi. Bilim almashinuvi talabaning axborotni tushunishi, dalil bilan boyitishi, boshqalarning g'oyasiga munosabat bildirishi, umumiy mahsulga individual hissa qo'shishi va olingan bilimni yangi vaziyatda qo'llashi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili

Oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, hamkorlikda o'qish va bilim almashinuvi masalalari zamonaviy raqamli pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida turli nazariy va empirik tadqiqotlarda yoritilgan. Mazkur muammoning nazariy asoslarini belgilashda Garrison, Anderson va Archer tomonidan ishlab chiqilgan Community of Inquiry modeli alohida ahamiyatga ega. Mualliflar matnga asoslangan kompyuter konferensiyalarida samarali ta'lim jarayoni kognitiv, ijtimoiy va o'qituvchilik mavjudligining o'zaro birligi orqali shakllanishini

ko'rsatadilar. Kognitiv mavjudlik muammoni anglash, axborotni tahlil qilish va asoslangan xulosaga kelish jarayonini, ijtimoiy mavjudlik ishtirokchilarning o'zaro muloqoti va guruhga daxldorligini, o'qituvchilik mavjudligi esa ta'lim faoliyatini loyihalash, boshqarish va yo'naltirishni ta'minlaydi [1, 87–105]. Ushbu yondashuv ijtimoiy tarmoqlardagi oddiy muloqot bilan pedagogik jihatdan tashkil etilgan hamkorlik o'rtasidagi farqni belgilash imkonini beradi.

Greenhow va Lewin ijtimoiy media vositalarining ta'limdagi rolini formal va norasmiy o'rganish chegaralarining yaqinlashuvi nuqtai nazaridan tahlil qiladilar. Ularning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar ta'lim jarayonini faqat auditoriya yoki institutsional platforma bilan chegaralab qo'ymasdan, talabaning kundalik raqamli faoliyati, professional hamjamiyatlar va mustaqil bilim izlash jarayonlari bilan bog'lash imkonini beradi [3, 6–30]. Bu holat oliy ta'limda bilim almashinuvinin yangi shakllarini yuzaga keltirib, talabaning o'quv jarayonidagi faolligini auditoriyadan tashqariga kengaytiradi. Ayniqsa, talabaning o'qituvchi tomonidan berilgan materialni shunchaki o'zlashtirishi emas, balki uni boshqa manbalar bilan qiyoslashi, muhokama qilishi va o'z fikri bilan boyitishi ijtimoiy tarmoqlarning ta'limiy imkoniyatlarini oshiradi.

Greenhow va Galvin ijtimoiy media vositalaridan oliy ta'limda foydalanishni aniq pedagogik strategiyalar bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlar masofaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi masofani kamaytirish, o'zaro muloqotni kuchaytirish va ta'lim jarayonida ishtirokni qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega ekani ko'rsatiladi [2, 513–524]. Biroq mazkur

vositalarning samarasi texnologiyani mavjudligiga emas, undan qanday pedagogik maqsadda foydalanilishiga bog'liq. Shu nuqta nazardan, ijtimoiy tarmoqni shunchaki axborot tarqatish vositasi sifatida emas, muammoli savol, muhokama, qayta aloqa va refleksiya o'z ichiga olgan o'quv faoliyati muhiti sifatida tashkil etish muhimdir.

Manca ijtimoiy tarmoqlarning oliy ta'limdagi imkoniyatlarini Facebook bilan cheklab qo'ymasdan, turli platformalarning ta'lim jarayonidagi funksiyalarini kengroq ko'rib chiqadi. Tadqiqotda ijtimoiy media vositalari talabalar o'rtasidagi aloqa, akademik hamjamiyat bilan o'zaro munosabat va ta'lim mazmunini almashishning qo'shimcha kanali sifatida namoyon bo'lishi qayd etiladi [6, 100707]. Bunda platformaning o'zi emas, undan foydalanish maqsadi va pedagogik kontekst asosiy omil hisoblanadi. Demak, oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlarni tanlashda ularning ommabopligi bilan bir qatorda, muhokama, hamkorlik, material almashinuvi, fikr bildirish va individual hissani kuzatish imkoniyatlari ham hisobga olinishi lozim.

Kaliisa, Kluge va Mörch ijtimoiy tarmoqlarni oliy ta'limga joriy etishda yuzaga keladigan muammolarni tizimli ravishda ko'rib chiqadilar. Mualliflar texnologik imkoniyatlar mavjud bo'lishiga qaramay, pedagogik maqsadning noaniqligi, o'qituvchilarning tayyorgarligi, institutsional qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi, maxfiylik va raqamli xavfsizlik masalalari kabi omillar ijtimoiy media vositalarining ta'limiy samaradorligini cheklashi mumkinligini ko'rsatadilar [4, 2559–2581]. Ushbu qarashlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni faqat texnik masala sifatida emas, balki tashkiliy, metodik va etik jihatlarini birlashtiruvchi pedagogik jarayon sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi.

Liu va hammualliflarining tadqiqotida ijtimoiy media asosidagi hamkorlikda o'qishning talabalarning akademik natijalariga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etilgan hamkorlik o'quvchilarning o'zaro aloqasi va ta'lim jarayonidagi faolligini kuchaytirishi mumkinligini, bunda akademik o'ziga ishonch ham muhim moderator omil sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadilar [5, 1–10]. Mazkur yondashuv bilim almashinuvi faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki talabaning motivatsiyasi, o'z imkoniyatlariga ishonchi va faol ishtiroki bilan bog'liq pedagogik hodisa sifatida tushunishga asos yaratadi.

Sobaih va hammualliflari rivojlantirgan mamlakatlarda oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganib, bunday vositalarning talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatadilar. Shu bilan birga, texnik infratuzilma, foydalanish imkoniyatlaridagi tafovut va pedagogik tayyorgarlik bilan bog'liq muammolar ham ta'limiy samaradorlikka ta'sir qilishi mumkinligi qayd etiladi [8, 296–305]. Bu qarashlar raqamli tenglik masalasini ijtimoiy tarmoqlar asosidagi ta'limni tashkil etishning muhim sharti sifatida ko'rishga imkon beradi.

Perez, Manca, Fernández-Pascual va Mc Guckin tomonidan amalga oshirilgan tizimli sharh ijtimoiy tarmoqlarning oliy ta'limdagi o'qitish va o'rganish vositasi sifatidagi imkoniyatlarini keng ko'lamda umumlashtiradi. Mualliflar mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish asosida ijtimoiy media talabalar faolligi, muloqot, hamkorlik va bilim almashinuvi qo'llab-quvvatlashi mumkinligini ko'rsatadilar. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning samarasi platformaning mavjudligidan ko'ra, uning pedagogik maqsadga muvofiq loyihalashtirilishi, o'qituvchi tomonidan boshqarilishi va ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishiga ko'proq bog'liqligi ta'kidlanadi [7, 11921–11950]. Mazkur xulosa ijtimoiy tarmoqlarni mustaqil va nazoratsiz ta'lim muhiti emas, balki LMS, raqamli portfolio, topshiriqlar va baholash mexanizmlari bilan bog'langan yordamchi pedagogik vosita sifatida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ta'limiy samaradorligini baholashda barcha platformalarni yagona vosita sifatida ko'rib chiqish yetarli emas. Ularning pedagogik qiymati texnik imkoniyatlari, auditoriya xususiyati va muayyan o'quv vazifasiga mosligi bilan farqlanadi. Masalan, Telegram tezkor xabar almashish, kichik guruhlarda muhokama olib borish, fayl va havolalarni tarqatish hamda qisqa savol-javoblarni tashkil etish uchun qulay bo'lsa, uning asosiy cheklovi murakkab topshiriqlarni tizimli boshqarish va individual o'quv natijalarini to'liq qayd etish imkoniyatining nisbatan cheklanganligidir. Facebook guruhlar uzoqroq muddatli akademik hamjamiyatlar shakllantirish, mavzuli muhokamalar va tengdoshlar o'rtasida fikr almashish uchun qo'llanishi mumkin. LinkedIn esa professional bilim almashinuvi, mutaxassislar bilan aloqa o'rnatish, kasbiy hamjamiyatlarga qo'shilish va talabaning professional raqamli portfoliosini rivojlantirish uchun ko'proq mos keladi.

Vizual va multimedia mazmunini yaratish zarur bo'lgan vaziyatlarda Instagram va YouTube kabi platformalarning imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Instagram qisqa vizual materiallar, infografika, qisqa videolar va ommaviy akademik kommunikatsiyani tashkil etishga xizmat qilsa, YouTube videoma'ruzalar, tajriba namoyishlari, tushuntiruvchi videolar va talabalarning raqamli loyihalarini taqdim etish uchun kengroq

imkoniyat beradi. Biroq ushbu platformalarda axborotning ko'pligi sababli o'quv materiallarini saralash, manbalarni tekshirish va pedagogik topshiriq bilan bog'lash alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan oliy ta'lim uchun yagona "eng samarali" ijtimoiy tarmoq mavjudligini ta'kidlashdan ko'ra, pedagogik vazifa–platforma funksiyasi mosligini ta'minlash maqsadga muvofiq. Tezkor akademik muloqot uchun Telegram, professional hamkorlik uchun LinkedIn, vizual va video kontent uchun Instagram hamda YouTube, kengroq guruhli muhokama uchun Facebookdan foydalanish mumkin. Biroq ijtimoiy tarmoqlarni rasmiy ta'lim jarayonining yagona platformasi sifatida emas, LMS bilan integratsiyalashgan kommunikativ va hamkorlik muhiti sifatida qo'llash ta'lim jarayonining tizimliliigi va baholash imkoniyatlarini saqlab qoladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlar orqali hamkorlik va bilim almashinuvi jarayonlarini o'rganishga yo'naltirildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, mazmuniy guruhlash va ilmiy manbalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil asosida ijtimoiy tarmoqlarning ta'limiy imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari aniqlandi, qiyosiy tahlil orqali oddiy axborot almashinuvi bilan hamkorlikda bilim yaratish jarayoni farqlandi. Mazmuniy guruhlash yordamida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning imkoniyatlari, muammolari, pedagogik shartlari va samaradorlik ko'rsatkichlari tizimlashtirildi. Ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlar orqali samarali hamkorlikni tashkil etishning asosiy pedagogik mexanizmlari belgilandi.

Natijalar

Topshiriq, rol va baholash mezonini belgilanmagan sharoitda tarmoq guruhlariga faqat e'lon va material saqlash kanaliga aylanib qolishi mumkin. Shu sababli maqolaning maqsadi oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlar orqali hamkorlik va bilim almashinuvining pedagogik mexanizmlarini tahlil qilish hamda uning samaradorligini ta'minlovchi shartlarni asoslashdan iborat.

Hamkorlikda o'qish bilimni tayyor holatda qabul qilish emas, balki ijtimoiy muloqot orqali birgalikda qurish g'oyasiga asoslanadi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, talaba yangi ma'lumotni mavjud tajribasi bilan bog'laydi, o'z qarashini izohlaydi va muqobil fikrlar bilan taqqoslash jarayonida bilimni qayta tashkil qiladi. Ijtimoiy tarmoqdagi asinxron muhokama talabaga fikrini o'ylab yozish, manbani tekshirish va suhbatga qulay vaqt qo'shilish imkonini beradi. Sinxron uchrashuvlar esa tezkor kelishuv, vazifalarni taqsimlash va murakkab masalalarni birgalikda hal qilishga xizmat qiladi.

Community of Inquiry modelida mazmunli onlayn ta'lim kognitiv, ijtimoiy va o'qituvchilik mavjudligining birligi bilan izohlanadi. Kognitiv mavjudlik muammoni o'rganish va dalillangan xulosaga kelishni; ijtimoiy mavjudlik ishtirokchilarning o'z fikrini erkin ifodalashi va guruhga daxldorligini; o'qituvchilik mavjudligi esa jarayonni loyihalash, moderatsiya qilish va yo'naltirishni anglatadi. Ushbu uch unsurdan biri yetishmasa, faol muloqot chuqur bilim almashinuviga aylanmasligi mumkin.

Greenhow va Lewin ijtimoiy tarmoqlar formal hamda norasmiy ta'lim chegaralarini yaqinlashtirishini ko'rsatadi. Talaba auditoriyada o'rganilgan mavzuni tarmoqda davom ettirishi, professional hamjamiyatlar materiallari bilan tanishishi va o'z bilimni real auditoriya oldida sinovdan o'tkazishi mumkin. Manca, Greenhow va boshqa tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlarning hamkorlik, muloqot va talabalar jalb etilishiga ijobiy imkoniyatlar yaratishini qayd etadi. 2023-yildagi tizimli sharh ham ijtimoiy tarmoqlarning oliy ta'limda bilim almashish va jamoaviy o'rganish vositasi sifatidagi salohiyatini tasdiqlaydi, shu bilan birga samara pedagogik dizayn va institutsional shartlarga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Bilim almashinuvining pedagogik sikli "muammo - individual izlanish - dalil ulashish - jamoaviy muhokama - umumiy mahsul - tengdoshlar bahosi - refleksiya" ketma-ketligida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda talaba faqat ma'lumot yuboruvchi emas, manbani tekshiruvchi, savol beruvchi, dalilni baholovchi, boshqaning fikrini rivojlantiruvchi va umumiy xulosani shakllantiruvchi subyektgacha aylanadi. Demak, hamkorlikning asosiy ko'rsatkichi xabarlar soni emas, ishtirokchilarning umumiy bilim mahsuliga qo'shgan mazmunli hissasidir.

Maqola nazariy-tahliliy tadqiqot shaklida bajarildi. Tadqiqot obyekti oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayoni, predmeti esa ushbu tarmoqlarda hamkorlik va bilim almashinuvi tashkil etishning pedagogik mexanizmlaridan iborat. Ijtimoiy tarmoqlar, hamkorlikda o'qish, akademik muloqot, bilim yaratish, tengdoshlar bahosi va raqamli pedagogika masalalarini yorituvchi ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Tizimli tahlil orqali ijtimoiy tarmoqning ta'limiy vazifalari aniqlashtirildi; qiyosiy tahlil yordamida oddiy axborot almashinuvi bilan hamkorlikda bilim yaratish farqlandi; mazmuniy guruhlash asosida imkoniyatlar, xavflar, pedagogik shartlar va natija indikatorlari ajratildi. Ushbu tezisda yangi tajriba-sinov ma'lumotlari keltirilmaydi. Natijalar

bo'limi ilmiy adabiyotlar va pedagogik yondashuvlarning konseptual sintezini ifodalaydi.

Nazariy tahlil ijtimoiy tarmoqlar hamkorlik va bilim almashinuviga uch asosiy yo'l bilan ta'sir qilishini ko'rsatdi. Birinchidan, ular makon va vaqt cheklovini kamaytirib, talabaga auditoriyadan tashqarida ham savol berish, manba ulashish va guruh loyihasini davom ettirish imkonini beradi. Ikkinchidan, matn, tasvir, audio va video formatlarning uyg'unligi turli o'rganish usullarini qo'llab-quvvatlaydi. Uchinchidan, tahrirlar tarixi, izohlar va raqamli mahsullar hamkorlik jarayonining kuzatiladigan dalillarini hosil qiladi.

Platformalarni funksional jihatdan taqqoslash ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish samaradorligi ularning mashhurligi bilan emas, balki bajariladigan pedagogik vazifa bilan belgilanadi, degan xulosani beradi. Telegram tezkor kommunikatsiya, guruhli savol-javob, topshiriq bo'yicha qisqa maslahat va materiallar almashinuvi uchun samarali bo'lishi mumkin. Ayniqsa, kichik o'quv guruhlarida talabalar o'rtasida tezkor aloqa va o'qituvchi bilan qayta aloqa tashkil etishda uning soddaligi muhim afzallik hisoblanadi. Biroq Telegramdagi xabarlarining tez ko'payishi muhim ma'lumotlarning yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkinligi sababli murakkab topshiriqlar, rasmiy baholash va o'quv natijalarini tizimli saqlash uchun uni LMS bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq.

LinkedInning ustunligi esa akademik hamkorlikni professional rivojlanish bilan bog'lash imkoniyatidir. Talabalar mutaxassislar, tashkilotlar va professional hamjamiyatlar bilan tanishishi, o'z sohasiga oid materiallarni muhokama qilishi va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishi mumkin. Shu sababli LinkedIn ayniqsa yuqori kurs talabalari, magistrantlar va kasbiy yo'nalishdagi fanlarda bilim almashinuvi uchun foydali kommunikativ muhit sifatida qaralishi mumkin.

YouTube video asosidagi bilim almashinuvi uchun qulay platforma bo'lib, videodars, laboratoriya jarayoni, amaliy mashg'ulot, intervyu yoki talabanning loyiha taqdimotini tarqatish imkonini beradi. Bunda talaba faqat tayyor videoni tomosha qiluvchi emas, balki o'zining ilmiy yoki o'quv mazmunidagi video mahsulotini yaratib, uni guruh muhokamasiga taqdim etuvchi faol ishtirokchiga aylanishi mumkin. Instagram esa qisqa vizual kontent, infografika, sxema va qisqa videolar orqali murakkab tushunchalarni ixcham shaklda ifodalashga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu platformalarning tezkor va ko'ngilochar kontentga yo'naltirilgan xususiyati akademik mazmuni yuzakilashtirmaslik uchun pedagogik topshiriq va aniq mezonlarni talab qiladi.

Shunday qilib, oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlarni tanlashda "eng yaxshi platforma" tushunchasidan ko'ra, "eng mos platforma" tamoyili ustuvor bo'lishi kerak. Tezkor muloqot va axborot almashinuvi uchun Telegram, professional hamkorlik va kasbiy tarmoq yaratish uchun LinkedIn, video va multimedia loyihalari uchun YouTube, vizual va qisqa akademik kontent uchun Instagram, keng guruhli muhokama uchun esa Facebookdan foydalanish mumkin. Bunday funksional differensiallash ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni tasodifiy kommunikatsiyadan maqsadli pedagogik faoliyatga aylantiradi.

Samarali hamkorlik uchun guruhdagi rollar aniq belgilanishi zarur. Moderator muhokama tartibini saqlaydi, manba tekshiruvchi dalillarning ishonchligini baholaydi, kotib umumiy xulosani rasmiylashtiradi, taqirchi esa mahsulni mezon asosida tahlil qiladi. Rollarning almashib borishi barcha talabalarga turli hamkorlik ko'nikmalarini egallash imkonini beradi. "Fikr - dalil - izoh - savol" modeli esa qisqa va yuzaki javoblar o'rniga asoslangan akademik muloqotni shakllantiradi.

Tahlil asosida samaradorlikni ta'minlovchi oltita shart ajratildi: aniq o'quv maqsadi va muammoli savol; ishtirokchilar roli hamda individual hissaning ko'rinariligi; ishonchli manba va akademik halollik talabi; pedagog moderatsiyasi va rivojlantiruvchi qayta aloqa; umumiy mahsul hamda shaffof baholash rubrikasi; yakuniy refleksiya va bilimni yangi vaziyatga ko'chirish. Masalan, talabalar fan muammosi bo'yicha shunchaki postlar yozish o'rniga manbalarni tekshirishi, turli pozitsiyalarni qiyoslashi, jamoaviy infografika yoki raqamli hikoya yaratishi va uni qisqa individual himoya orqali asoslab berishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bir qator xavflarni ham yuzaga keltiradi. Faol talabalar muhokamada ustunlik qilishi, ayrim ishtirokchilar esa "jim kuzatuvchi" bo'lib qolishi mumkin. Guruh mahsuliga barcha a'zolarga bir xil baho berish individual hissani yashiradi. Ishonchsiz ma'lumotning tez tarqalishi bilim sifatini pasaytiradi; shaxsiy akkauntidan majburiy foydalanish esa maxfiylik va tenglik muammosini keltirib chiqaradi. Shu bois hissa jurnali, tahrirlar tarixi, tengdosh bahosi va individual refleksiya birgalikda qo'llanishi kerak. Ochiq akkaunt majburiy bo'lmazligi, yopiq LMS, test akkaunti yoki muqobil topshiriq imkoniyati yaratilishi lozim.

Muhokama

Oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish masalasini muhokama qilishda asosiy e'tibor texnologiyaning o'ziga emas, uning

ta'limiy jarayonni qanday o'zgartirishiga qaratilishi lozim. Ijtimoiy tarmoqning pedagogik qiymati talabanning platformada mavjudligi yoki faol xabar almashinuvi bilan emas, balki ushbu faoliyatning o'quv maqsadiga qanchalik yo'naltirilgani bilan belgilanadi. Shu jihatdan, ijtimoiy tarmoqlar an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini to'liq almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki ta'lim jarayonining davomiyligini ta'minlovchi qo'shimcha kommunikativ muhit sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Muhokama qilinayotgan masalaning muhim jihatlaridan biri talabanning bilim iste'molchisi emas, bilim jarayonining faol ishtirokchisi sifatidagi mavqeyining kuchayishidir. Ijtimoiy tarmoqdagi muhokama talabanidan tayyor ma'lumotni takrorlashdan ko'ra, o'z pozitsiyasini bildirish, unga sabab keltirish, boshqa ishtirokchilarning qarashlarini tahlil qilish va zarur hollarda dastlabki fikrini o'zgartirishni talab qiladi. Bunday faoliyat akademik muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan birga, mustaqil fikrlash va argumentatsiya ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Bunda o'qituvchining roli ham o'zgaradi. U faqat axborot manbai sifatida emas, balki muhokama jarayonini loyihalovchi va uning sifatini boshqaruvchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muhokama mavzusini aniq chegaralashi, savollarni murakkablik darajasiga ko'ra shakllantirishi, yuzaki yoki dalilsiz fikrlarni chuqurlashtiruvchi savollar bilan rivojlantirishi hamda talabalar o'rtasidagi muloqotning akademik me'yorlarini belgilashi zarur. Bunday yondashuv ijtimoiy tarmoqdagi erkin muloqotni maqsadli o'quv faoliyatiga aylantiradi.

Shuningdek, bilim almashinuvida axborot sifati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli muhitda ma'lumotning tez tarqalishi uning ilmiy jihatdan ishonchli ekanini anglatmaydi. Shuning uchun talabalarga manbani aniqlash, mualliflik va nashr ishonchligini baholash, bir nechta manbani qiyoslash hamda fikr va faktni farqlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bu jarayon raqamli savodxonlikni akademik savodxonlik bilan bog'laydi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ta'limiy sifatini oshiradi.

Yana bir muhim masala individual va jamoaviy faoliyat o'rtasidagi muvozanat. Guruhli topshiriqlarda umumiy mahsulotning mavjudligi har bir talabanning real hissasini avtomatik ravishda ko'rsatmaydi. Shu sababli jamoaviy natija bilan bir qatorda individual izlanish, dalil keltirish, muhokamadagi ishtirok va yakuniy refleksiya ham hisobga olinishi lozim. Bu yondashuv talabalarni guruh ishida mas'uliyatli ishtirok etishga undaydi va baholashning adolatligini oshiradi.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda raqamli tenglik va ta'limiy inkluzivlik ham muhim muhokama masalasidir. Barcha talabalar bir xil texnik imkoniyat, internet sifati yoki shaxsiy qurilmaga ega bo'lmazligi mumkin. Bundan tashqari, ayrim talabalar shaxsiy ijtimoiy tarmoq akkauntidan o'quv maqsadida foydalanishni istamasligi mumkin. Shu sababli ta'lim muassasasi muqobil kirish imkoniyatlarini yaratishi, zarur materiallarni LMS orqali ham taqdim etishi va baholashni faqat bitta platformadagi faollikka bog'lab qo'yimasligi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir jihati ta'lim va shaxsiy raqamli makon chegaralarining yaqinlashishidir. Bu holat talabaga qulay kommunikativ muhit yaratishi bilan birga, shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlarni himoya qilish va akademik chegaralarni saqlash masalalarini yuzaga chiqaradi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha aniq qoidalar, ma'lumotlarni himoya qilish talablari va ishtirokchilarning huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi me'yorlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Platformani tanlashda uning kommunikativ tezligi bilan bir qatorda, o'quv topshiriqining tabiati, talabalar guruhi, mazmun turi va baholash ehtiyoji ham hisobga olinishi kerak. Masalan, qisqa muddatli muhokama va tezkor qayta aloqa talab qiladigan topshiriqlarda Telegram qulay bo'lsa, uzoq muddatli professional hamkorlik va mutaxassislar bilan aloqaga yo'naltirilgan faoliyatlarda LinkedIn imkoniyatlarini yuqoriroqdir. Video asosidagi topshiriqlarda YouTube, vizual materiallar va qisqa axborot mahsulotlarini yaratishda Instagram, mavzuli guruh muhokamalarida esa Facebookdan foydalanish mumkin. Bunday taqsimot bir platformani barcha vazifalar uchun majburiy vositaga aylantirishning oldini oladi.

Shu bilan birga, platformalarning ta'limiy samaradorligini ularning funksiyalari emas, pedagogik ssenariy bilan uyg'unligi belgilaydi. Masalan, Telegram guruhining mavjudligi o'z-o'zidan hamkorlikda bilim yaratishni ta'minlamaydi; buning uchun muammoli savol, individual izlanish, manba bilan ishlash, guruhli muhokama va yakuniy mahsul talab qilinishi kerak. Xuddi shuningdek, YouTube yoki Instagramda material joylashtirish ham bilim almashinuvi sifatida baholanmasligi, talabanning mazmun yaratishi, izohlashi va boshqa ishtirokchilar bilan fikr almashishi ham hisobga olinishi lozim. Demak, platforma tanlovi ta'limiy maqsadga bo'ysundirilgan holda amalga oshirilgandagina ijtimoiy tarmoqning kommunikativ imkoniyati pedagogik natijaga aylanishi mumkin.

Muhokama qilingan jihatlar ijtimoiy tarmoqlarning ta'limdagi samarasi ularning texnik imkoniyatlaridan ko'ra, pedagogik loyihalash sifati bilan ko'proq belgilanadi, degan xulosaga olib keladi. Eng maqbul modelda ijtimoiy tarmoq tezkor kommunikatsiya va norasmiy fikr almashinuvi uchun, LMS esa topshiriqlar, rasmiy baholash va akademik natijalarni qayd etish uchun xizmat qiladi. Bunday funksional taqsimot raqamli muhitdagi erkin muloqot bilan ta'lim jarayonining akademik tartibini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Xulosa

Yuqoridagilardan aytishimiz mumkinki, bilim almashinuvi baholashda postlar, izohlar yoki "layk"lar soni yetarli indikator emas. Manbaning ishonchiligi, fikrning dalillanganligi, boshqalarning g'oyasini rivojlantirish, individual hissa, umumiy mahsul sifati, qayta aloqadan keyingi tahrir va refleksiya asosiy ko'rsatkich bo'lishi kerak. Ijtimoiy tarmoq tezkor muloqot va hamkorlik maydoni, LMS esa rasmiy topshiriq,

baholash va o'quv izini saqlash muhiti sifatida funksional integratsiya qilinsa, jarayon yanada tartibli va xavfsiz bo'ladi.

Oliy ta'limda ijtimoiy tarmoqlar hamkorlik va bilim almashinuvi kengaytiruvchi muhim raqamli-pedagogik muhitdir. Ular auditoriya va mustaqil ta'limni bog'laydi, tengdoshlar muloqotini faollashtiradi, multimedia mahsullarini birgalikda yaratish va tezkor qayta aloqa olish imkonini beradi. Biroq texnik imkoniyatning o'zi mazmunli hamkorlikni ta'minlamaydi. Natija pedagogik maqsad, muammoli topshiriq, rol, dalil, moderatsiya, baholash va refleksiyaning yaxlit tashkil etilishiga bog'liq.

Shu sababli ijtimoiy tarmoqni faqat material tarqatish kanali emas, "individual izlanish - dalil almashish - jamoaviy muhokama - umumiy mahsul - baholash - refleksiya" sikliga asoslangan hamkorlik muhiti sifatida loyihalash lozim. Kelgusidagi empirik tadqiqotlarda hamkorlik sifati, individual hissa, akademik o'zlashtirish va bilimning yangi vaziyatga ko'chirilishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Garrison D.R., Anderson T., Archer W. Critical inquiry in a text-based environment: computer conferencing in higher education // *The Internet and Higher Education*. – 2000. – Vol. 2, No. 2–3. – P. 87–105. DOI: 10.1016/S1096-7516(00)00016-6.
2. Greenhow C., Galvin S.M. Teaching with social media: evidence-based strategies for making remote higher education less remote // *Information and Learning Sciences*. – 2020. – Vol. 121, No. 7/8. – P. 513–524. DOI: 10.1108/ILS-04-2020-0138.
3. Greenhow C., Lewin C. Social media and education: reconceptualizing the boundaries of formal and informal learning // *Learning, Media and Technology*. – 2016. – Vol. 41, No. 1. – P. 6–30. DOI: 10.1080/17439884.2015.1064954.
4. Kaliisa R., Kluge A., Mørch A.I. Overcoming challenges to the adoption of social media for teaching in higher education // *Education and Information Technologies*. – 2022. – Vol. 27. – P. 2559–2581. DOI: 10.1007/s10639-021-10648-1.
5. Liu S., Zaigham G.H.K., Rashid R.M., Bilal A. Social media-based collaborative learning effects on student performance with moderating role of academic self-efficacy // *Frontiers in Psychology*. – 2022. – Vol. 13. – Art. 903919. DOI: 10.3389/fpsyg.2022.903919.
6. Manca S. Snapping, pinning, liking or texting: investigating social media in higher education beyond Facebook // *The Internet and Higher Education*. – 2020. – Vol. 44. – Art. 100707. DOI: 10.1016/j.iheduc.2019.100707.
7. Perez E., Manca S., Fernández-Pascual R., Mc Guckin C. A systematic review of social media as a teaching and learning tool in higher

education // *Education and Information Technologies*. – 2023. – Vol. 28. – P. 11921–11950. DOI: 10.1007/s10639-023-11647-2.

8. Sobaih A.E.E., Moustafa M.A., Ghandforoush P., Khan M. To use or not to use? Social media in higher education in developing countries // *Computers in Human Behavior*. – 2016. – Vol. 58. – P. 296–305. DOI: 10.1016/j.chb.2016.01.002.

9. Ansari J.A.N., Khan N.A. Exploring the role of social media in collaborative learning the new domain of learning // *Smart Learning Environments*. – 2020. – Vol. 7. – Art. 9. – DOI: 10.1186/s40561-020-00118-7.

10. Hamadi M., El-Den J., Azam S., et al. A novel framework for integrating social media as cooperative learning tool in higher education's classrooms // *Research and Practice in Technology Enhanced Learning*. – 2021. – Vol. 16. – Art. 21. – DOI: 10.1186/s41039-021-00169-5.

11. Manca S., Delfino M., Rega V. Students, social network technology and learning in higher education: Visions of collaborative knowledge construction vs. the reality of knowledge sharing // *The Internet and Higher Education*. – 2021. – Vol. 49. – Art. 100787. – DOI: 10.1016/j.iheduc.2020.100787.

12. Hamadi M., El-Den J., Azam S., Sriratanaviriyakul N.C. Integrating social media as cooperative learning tool in higher education classrooms: An empirical study // *Journal of King Saud University – Computer and Information Sciences*. – 2022. – Vol. 34, No. 6, Part B. – P. 3722–3731. – DOI: 10.1016/j.jksuci.2020.12.007.